

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIYDAVLAT UNIVERSITETI

ERGASHEVA HAYOTXON SAMANDAROVNA

**BURHONIDDIN MARG‘INONIY DINIY–FALSAFIY QARASHLARIDA
MA’NAVIY BARQARORLIK MASALALARI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Ergasheva Hayotxon Samandarovna

Burhoniddin Marg‘inoniy diniy-falsafiy qarashlarida ma’naviy barqarorlik
masalalari 3

Эргашева Хаётхан Самандаровна

Проблемы духовной устойчивости в религиозно-философских воззрениях
Бурхониддина Маргинани.....25

Ergasheva Hayatkhan Samandarovna

Issues of spiritual stability in the religious and philosophical views of Burhoniddin
Marginani.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIYDAVLAT UNIVERSITETI

ERGASHEVA HAYOTXON SAMANDAROVNA

**BURHONIDDIN MARG‘INONIY DINIY–FALSAFIY QARASHLARIDA
MA’NAVIY BARQARORLIK MASALALARI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PHD/Fal956 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nayoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shamsutdinova Nigina Karimovna
falsafa fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Karimov Baxtiyor Raxmonovich
falsafa fanlari doktori, professor

Muzaffarov Firuz Davronovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "02" iyun soat 15.00 agi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65)221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (902 - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "20" may kuni tarqatildi.

(2026-yil "20" may dagi 14 raqamli reyestr bayonnomasi.)



B. B. Namozov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

A. Z. Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

N. O. Safarova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan globallashuv va madaniy transformatsiya jarayonlari diniy qadriyatlarni noto'g'ri talqin qilish, axloqiy relyativizm, huquqiy nigilizm va ma'naviy begonalashuv kabi holatlarni keltirib chiqarib, jamiyat ma'naviy barqarorligini ta'minlash muammosini umuminsoniy ahamiyatga molik vazifaga aylantirmoqda. Shu bois jamiyat ma'naviy barqarorligini ta'minlashda boy tarixiy merosdagi axloqiy-huquqiy mezonlarni ta'lim-tarbiya tizimiga singdirish, ma'naviy barqarorlikni mustahkamlash va takomillashtirishga oid mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, islom sivilizatsiyasi tarixida huquq, axloq, adolat, insof, bag'rikenglik va ijtimoiy tartibni uyg'un holda talqin qilgan buyuk mutafakkir Burhoniddin Marg'inoniy diniy-falsafiy qarashlarini, konseptual ta'limotini hamda asarlaridagi insof va diyonat, mehr-oqibat kabi axloqiy mezonlarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani, sharqshunoslik va islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazlarida Sharq mutafakkirlari ilmiy merosi, ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat, madaniyat, falsafa ilmi hamda diniy-huquqiy qarashlarini tadqiq etishga qaratilgan fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda Burhoniddin Marg'inoniy merosi, mutafakkir qarashlaridagi adolat, mas'uliyat, halollik, vojiblik, burch, insof, meyor, ijtimoiy tartib va axloqiy barqarorlik masalalari faqat tashqi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar emas, balki insonning ma'naviy kamoloti, jamiyatda ishonch muhitini shakllantirish, zulm va adolatsizlikning oldini olish, ijtimoiy munosabatlarda muvozanatni ta'minlashga xizmat qiluvchi qadriyatlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun Burhoniddin Marg'inoniyning davlat va jamiyat taraqqiy etishi uchun unda istiqomat qilayotgan aholi tafakkurida halollik, kamtarinlik, daxldorlik, insof va murosas kabi ezgu g'oyalarini, falsafiy qarashlaridagi "jamiyatga xizmat qilish" tamoyilini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Yangi O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar, milliy qadriyatlar va buyuk ajdodlar ilmiy merosini o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, ma'naviy tarbiya uzviyligini ta'minlash muhim vazifalar sifatida belgilangan. "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, aholi barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tizim qamrab olgan bolalar va o'smirlardan tashqari, aholining katta qismi orasida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlarining tizimli yo'lga qo'yilishi va bu borada yuksak samaradorlikka erishish o'tkir zaruratga aylanmoqda"¹. Ayniqsa, Burhoniddin Marg'inoniy qarashlaridagi adolat, bag'rikenglik, ma'rifat, axloqiy mas'uliyat va ijtimoiy tartib g'oyalarini tahlil qilish Yangi O'zbekistonda ma'naviy barqarorlikni ta'minlash, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish jarayonlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

¹Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент : "O'zbekiston", 2021. – Б.285.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2025-yil 21-apreldagi PF-68-son “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma‘rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 12-maydagi PQ-3721-son “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Burhoniddin Marg‘inoniy ilmiy merosi xorijlik tadqiqotchi olimlardan Zambavor, Sharl’ Reno, C.Brockelman tomonidan huquqiy va ma‘naviy jihatdan, Taroblusiy Alouddin Ali ibn Xalil, Wael Hallaq, Sayid Muhammad Murtazo Husayniy Zubaydiy tomonidan esamulkiy munosabatlar, bag‘rikenglik mohiyati kabi ijtimoiy masalalari tahlil etilgan².

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari tadqiqotchilari V.Bartold, N.Likoshin mutafakkirning tug‘ilgan sanasi, joyi, yashab o‘tgan hududiga oid; D.Obidovning “Hanafiya huquqiy maktabi va uning islom huquqining sunniy yo‘nalishidagi ahamiyati” mavzusidagi huquq falsafasi yo‘nalishidagi maxsus fundamental tadqiqoti Burhoniddin Marg‘inoniy ilmiy merosini qiyosiy tahlil etishda ilmiy asos bo‘ladi³.

O‘zbekistonda S.Isxakov “Hidoya” asarida keltirilgan huquq manbalar tahlilini, A.Saidov, M.Nuriddinov esa mutafakkirning “Hidoya” asarini rus va arab tilidan tarjima qilib, huquqiy, diniy va falsafiy jihatlarini o‘rganishgan. O.Qoriyev,

²Zambovar. Мўъжамул – ансобвал – усуротил – хакийма фит – тарихал - исламий. – Байрут.: Дорур-роьидал-ъарабий, 1980.-Б.54.; Шарл Рено. Мусульманское право.-М.: Издательство иностранной литературы, 1959.-Б.47.; Brockelman С.Geschichte der arabischen Litteratur. 3-jildi. Weimar-Berlin, 1993.; Taroblusiy Aлоуддин Али ибн Халил. Муьинул-хуккам.-Дамашк, Дорул-фикр, 1429/1998.-Б.44.; Wael Hallaq. Shari‘a: theory, practice, transformations. Cambridge, UK; New York, USA, Cambridge University Press, 2009.-315 p.-P.44.; Сайид Мухаммад Муртазо Хусайний Зубайдий. Тожул-арус мин жавахирил-комус. 40 томлик/ -Кувейт, 1994.

³Бартольд В.В. История Туркестана//Бартольд В.В. Соб.соч.в 9 т.Т.II.Ч.И.М., 1963.-С.250.; Лыкошин Н.С. Автор Хидая//Туркестанские ведомости.1907.-С.64.; Д.Обидов. Ханафитская правовая школа и ее значение в суннитском направлении исламского права (мавераннахрское течение). Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. д.юридик. н. -Душанбе, 2008.

Mahmud Hasaniy, K.Kattayev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Burhoniddin Margʻinoniy ilmiy merosining tarixiy aspektlari ochib berilgan. Shuningdek, Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, Sh.Ziyodov, H.Aliqulov, T.Gʻoziyev tadqiqotlari Burhoniddin Margʻinoniy ilmiy merosining maʼnaviy-maʼrifiy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi. M.Bahodirov, J.Xolmoʻminov, G.Navroʻzova, N.Nurmatova, N.Safarova, B.Namozov, H.Salomova, Sh.Madayeva, Z.Isaqova, G.Yunusova, N.Shamsutdinova olib borgan ilmiy tadqiqotlari Burhoniddin Margʻinoniy ilmiy merosidagi maʼnaviy barqarorlikka oid falsafiy jihatlar va mutafakkir yashagan ijtimoiy-siyosiy muhit haqidagi maʼlumotlarni yoritishda ahamiyatlidir⁴.

Burhoniddin Margʻinoniy diniy-falsafiy qarashlari doirasida olib borilgan tadqiqot ishlari klassifikatsiyasi shuni koʻrsatadiki tadqiqotlarda mutafakkir ilmiy merosining diniy, huquqiy, aksiologik jihatlarini tadqiq etilgan. Biroq mutafakkir qarashlaridagi adolat, masʼuliyat, halollik, vojiblik, burch, insof, meyor, ijtimoiy tartib va axloqiy barqarorlik masalalarini falsafa tarixi nuqtai nazaridan yaxlit diniy-falsafiy tizim sifatida tadqiq etish amalga oshirilmagan. Shu bois mazkur tadqiqotda Margʻinoniy merosini maʼnaviy barqarorlikning taʼminlashdagi ahamiyati nuqtai nazardan tadqiq etishga alohida eʼtibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band “Barkamol inson shaxsini shakllantirish va uning ijtimoiy-pedagogik mohiyati” (2022-2026 yy.) tadqiqot yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Burhoniddin Margʻinoniyning maʼnaviy barqarorlik haqidagi qarashlarining falsafiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

⁴Исхаков С.А. Бурхониддин Марғинонийнинг Ҳидоя асари-муҳим ҳуқуқий манба (тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). Юри. ф. н. дисс... –Тошкент, 2002.; Saidov A.H. Burhoniddin Margʻinoniy — buyuk huquqshunos.- Tashkent., 1997.; Nuriddinov M.N. Burhoniddin al-Margʻinoniy “Al-Hidoya” / arab tilidan tarjima. – Tashkent: Adolat, 2000. –B. 848.; Қориев О. Ал-Марғилоний машхур фикшшунос.-Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2000.; Махмуд Ҳасаний. Ал Марғинонийнинг Ҳидоя асари ва унга ёзилган шарҳлар. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. -Tashkent:-2000. Каттаев К. Буюк ҳуқуқшунос алломалар.-Tashkent: Қақнус нашриёти, 2000.; Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Самарқанднинг сара уламолари. - Tashkent: Hilol-nashr, 2014.–Б.12.; Gʻoziyev T. Burhoniddin Margʻinoniy:tarixiy haqiqat va asotirlar. Yangi asr avlodi. -T.: 2010.; Зиёдов Ш. Ал-Мотуридий ҳаёти ва мероси. - Tashkent: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000.–Б.23.; Aliqulov H. Sharq uygʻonish davri va falsafiy tafakkur rivoji. -T.: Mumtoz soʻz, 2016.–B.37.;Бахадиров Р.М. Из истории классификации наук на мусульманском востоке. Ташкент: Академия. 2000. – С. 69-72.; Холмўминов Ж. Тасаввуф онтологияси.Монография.- Tashkent: Ёш авлод матбаа, 2021.-Б.192.; Наврўзова Г., Нурматова Н. Юсуф Ҳамадоний – етти пирнинг табаррук устози. Монография. - Тошкент. Машхур-пресс. 2016. – Б.112.; Сафарова Н.О. Хожагон тасаввуфий таълимотида маънавий-ахлоқий кадрятлар масаласи. фал.ф.н. дисс...-Тошкент, 2002.; Namozov V. Muhammad Porso tasavvufiy taʼlimotining falsafiy asoslari, fal.f.d (DSc) diss. avtoref.- Samarqand, 2021.-64 b.; Salomova H.Yu. Meyorning falsafiy mohiyati va amaliy ahamiyati. –Buxoro.: Durdona, 2018. –196 b.; Madayeva Sh.O. Identiklik antropologiyasi, -Tashkent: Nishon noshir, 2015.; Исакова З.Р. Тасаввуф таълимотида орифлик ва валийлик талқини. – Tashkent: Abu matbuot konsalt, 2011. – Б.296.; Юнусова Г.С. Абдулқодир Гийлоний маънавий меросида инсон моҳиятининг фалсафий таҳлили. fal.f.d (DSc) diss. avtoref.- Samarqand, 2019.-63 b. Шамсутдинова Н.К. Тасаввуф контекстида Абу Али ибн Синонинг фалсафий қарашлари. Монография. – Tashkent: Dimal, 2024. – B.140.

Burhoniddin Margʻinoniy yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maʼrifiy muhitini hamda mutafakkir diniy-falsafiy qarashlarining shakllanish genezisini aniqlash;

Burhoniddin Margʻinoniy asarlaridagi maʼrifatga undovchi komillik mezonlari haqidagi gʻoyalarni tadqiq etish;

mutafakkirning diniy-falsafiy qarashlaridagi jamiyat maʼnaviy barqarorligiga oid masalalarning ijtimoiy-falsafiy mazmunini ochib berish;

Burhoniddin Margʻinoniy ilmiy merosida huquqiy masalalarni maʼnaviy barqarorlikning ijtimoiy-axloqiy meyorlar, adolat, masʼuliyat, halollik, insof va huquqiy tartib bilan oʻzaro aloqadorligini asoslash;

mutafakkir asarlarida maʼrifat, diniy bagʻrikenglik va insonparvarlik tamoyillarining maʼnaviy barqarorlikni taʼminlashdagi ahamiyatini ochib berish;

Yangi Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan maʼnaviy-maʼrifiy islohotlarda Burhoniddin Margʻinoniy ilmiy merosining konstruktiv ahamiyatini asoslash va undan foydalanish imkoniyatlarini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning obyektisifatida Burhoniddin Margʻinoniy diniy-falsafiy va ilmiy-maʼnaviy merosi, “Hidoya” asarida ifoda etilgan maʼnaviy barqarorlik masalalari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini Burhoniddin Margʻinoniy diniy-falsafiy qarashlarida maʼnaviy barqarorlik masalalarining nazariy-metodologik asoslari, umuminsoniy mohiyati, ijtimoiy-axloqiy meyorlar bilan oʻzaro aloqadorligi hamda Yangi Oʻzbekistonda maʼnaviy barqarorlikni taʼminlashdagi konstruktiv ahamiyatini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, komparativistik tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, dialektik, diskursiv tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Burhoniddin Margʻinoniyning “Hidoya” asarida ilgari surilgan “qiyos ilmi” konsepsiyasidagi huquqiy masalalarning mashruʼ (qonuniy) va nomashruʼ (gʻayriqonuniy) ekanligini aniqlashda naqliy dalillar (Qurʼoni karim oyatlari, Paygʻambar sunnati va hadislar, ijmoʻ) va soʻng aqliy dalillar (qiyos, taʼlil, istinson) mezoni orqali hukm chiqarish haqidagi yondashuvi jamiyat maʼnaviy barqarorligini qonun ustuvorligi, adolat, ijtimoiy masʼuliyat va huquqiy madaniyat tamoyillari asosida rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan;

mutafakkirning “Muxtorotun-navozil” asarlaridagi insof va diyonat, mehr-oqibat, oʻzganing mol-mulkiga koʻz olaytirmaslik, haromdan hazar qilish, “ijob va qabul” lafzlari, shart, tayin qilish, koʻrish, ayb ixtiyori, ixtiyor erkinligi kabi axloqiy mezonlar jamiyatda “halollik vaksinasi” tamoyilini amalga oshirish mexanizmlari sifatida dalillangan;

Burhoniddin Margʻinoniy falsafiy qarashlaridagi “jamiyatga xizmat qilish” gʻoyasi inson, jamiyat va davlat oʻrtasidagi hamkorlikni takomillashtirishda fuqarolarda ijtimoiy masʼuliyat va burch hissini shakllantirish, davlat va jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlar bilan uygʻunlashtirish, adolat va qonun ustuvorligi asosida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, jamiyatda

bag'rikenglik, hamjihatlik va o'zaro ishonch muhitini mustahkamlash hamda ijtimoiy loqaydlik, huquqiy nigilizm va ma'naviy begonalashuvning oldini olishi asoslangan.

mutafakkir ilmiy merosidagi adolat, ehson, mas'uliyat, silai rahm kabi ma'rifatga undovchi komillik mezonlari ijtimoiy-ma'naviy muhit sog'lomligini ta'minlashda adolatparvarlik va qonunga hurmat madaniyatini mustahkamlashi, mehr-oqibat, hamjihatlik va o'zaro ishonch muhitini shakllantirishi, yoshlar ongida ma'rifatparvarlik va axloqiy immunitetni rivojlantirish xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Burhoniddin Marg'inoniy ilmiy merosida keltirilgan axloqiy normalar (halollik, poklik, sabr-toqat, nafsni tiyish, vijdon va mas'uliyat), ijtimoiy normalar (adolat, insof, vafodorlik, o'zaro hurmat, ijtimoiy burch), ma'rifiy normalar (bag'rikenglik, ilmga intilish, hidoyat, ma'rifatparvarlik, e'tiqodiy mo'tadillik) va huquqiy normalar (qonunga itoat, majburiyatga sadoqat, nizolarni adolat asosida hal etish) kabi tamoyillarning jamiyat ma'naviy barqarorligini mustahkamlashdagi konstruktiv ahamiyati ochib berilgan;

Burhoniddin Marg'inoniy diniy-falsafiy qarashlarida ma'naviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi omillarning Yangi O'zbekistonda yoshlar ongida huquqiy-axloqiy mas'uliyatni shakllantirish, diniy-ma'rifiy immunitetni kuchaytirish, jamiyatda adolatparvarlik va halollik mezonlarini qaror toptirish, ijtimoiy munosabatlarda bag'rikenglik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash kabi tarbiyaviy ta'sirchanlikni oshirishdagi ahamiyati asoslangan;

mutafakkirning "Hidoya" asarida ilgari surilgan adolat, burch, mas'uliyat va huquqiy madaniyat g'oyalarini ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmuniga integratsiya qilish, mahalla-oila-ta'lim muassasasi hamkorligida ma'rifiy-profilaktik tadbirlar o'tkazish, yoshlar uchun metodik qo'llanma, buklet, videodars va elektron ta'lim resurslarini tayyorlash, talaba-yoshlarda halollik, insof, omonatdorlik va ijtimoiy burch tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan maxsus kurs va treninglarni joriy etish, nizolarni adolat, murosa va qonunga hurmat asosida hal etish madaniyatini rivojlantirishga doir ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, birlamchi manbalar va qo'lyozma asarlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr yetilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy yetilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqotning natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ma'naviy barqarorlik masalalarini falsafa tarixi nuqtai nazaridan yaxlit ilmiy-nazariy muammo sifatida tadqiq etish, mutafakkirlar merosidagi adolat, ma'rifat, diniy bag'rikenglik, ijtimoiy-axloqiy meyor, huquqiy

madaniyat, insof, halollik va mas'uliyat kabi tushunchalarning konseptual ahamiyatini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlarda, shuningdek, Marg'inoniyning "Hidoya" asarini inson va jamiyat munosabatlarini ma'naviy-axloqiy tartibga soluvchi manba sifatida tahlil qilish, ma'naviy barqarorlikning e'tiqod, axloq, huquqiy, ma'rifiy va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liqligini asoslash, Marg'inoniy merosini zamonaviy falsafiy tafakkur mezonlari asosida talqin qilish hamda milliy falsafiy merosni o'rganishda tarixiylik, vorisiylik, tizimlilik, hermenevtik va aksiologik yondashuvlarni takomillashtirishda nazariy-metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, ma'naviy barqarorlikka oid taklif va tavsiyalardan ma'naviy-ma'rifiy sohalarda olib borilayotgan targ'ibot tadbirlar ssenariylarini ishlab chiqishda, Yangi O'zbekistonda ma'naviy barqarorlikni ta'minlash, yoshlar ongida adolatparvarlik, ma'rifatparvarlik, diniy bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy immunitetni shakllantirish jarayonlarida, ta'lim muassasalarida "Falsafa tarixi", "Islom falsafasi", "Ma'naviyatshunoslik", "Dinshunoslik", "Axloqshunoslik" kabi fanlarni o'qitishda, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, targ'ibot materiallari, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, maxsus kurslar va ma'ruza matnlarini tayyorlashda, shuningdek, Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlashga xizmat qiluvchi milliy-ma'naviy meros targ'ibotini kuchaytirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Burhoniddin Marg'inoniy diniy-falsafiy qarashlarida ma'naviy barqarorlik masalalarini tadqiq etish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" asarida ilgari surilgan "qiyos ilmi" konsepsiyasidagi huquqiy masalalarning mashru' (qonuniy) va nomashru' (g'ayriqonuniy) ekanligini aniqlashda naqliy dalillar (Qur'oni karim oyatlari, Payg'ambar sunnati va hadislar, ijmo') va so'ng aqliy dalillar (qiyos, ta'lil, istinson) mezonlari orqali hukm chiqarish haqidagi yondashuvi jamiyat ma'naviy barqarorligini qonun ustuvorligi, adolat, ijtimoiy mas'uliyat va huquqiy madaniyat tamoyillari asosida rivojlantirishga xizmat qilishiga oid yangiliklar va takliflardan "O'zbekiston" teleradiokanali "Millat va ma'naviyat", "Ta'lim va taraqqiyot" dasturlarining 2025-yil yanvar va mart oylarida efirga uzatilgan ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasining 2025-yil 19-martdagi 05-09-338-son ma'lumotnomasi). Natijada, Natijada, halollik, kamtarinlik, insoflilik, murosa, daxldorlik kabi ezgu g'oyalari har qanday jamiyat taraqqiyoti uchun dasturil amal vazifasini bajarishi insonparvarlik, o'zaro yordam, ishonch, hamjihatlik, tinchliksevarlik, vatanparvarlik, adolatlilik, odamiylik, qonuniylik kabi tamoyillar jamiyatda ma'naviy barqarorlikning rivojlanishiga xizmat qilgan;

mutafakkirning "Muxtorotun-navozil" asarlaridagi insof va diyonat, mehr-oqibat, o'zganing mol-mulkiga ko'z olaytirmaslik, haromdan hazar qilish, "ijob va qabul" lafzlari, shart, tayin qilish, ko'rish, ayb ixtiyori, ixtiyor erkinligi kabi axloqiy mezonlar jamiyatda "halollik vaksinasi" tamoyilini amalga oshirish

mexanizmlari ekanligiga doir xulosa va takliflardan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan tayyorlangan “Burhoniddin Marg‘inoniy haqida 10 ta haqiqat” nomli ilmiy tahliliy materiallarni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2025-yil 14-martdagi 02/123-son ma’lumotnomasi). Natijada, islom fiqhining mazmun-mohiyatini, xalqimizga, qolaversa keng jamoatchilikka xolis va haqqoniy yetkazishga xizmat qilgan;

Burhoniddin Marg‘inoniy falsafiy qarashlaridagi “jamiyatga xizmat qilish” g‘oyasi inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi hamkorlikni takomillashtirishda fuqarolarda ijtimoiy mas’uliyat va burch hissini shakllantirish, davlat va jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirish, adolat va qonun ustuvorligi asosida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, jamiyatda bag‘rikenglik, hamjihatlik va o‘zaro ishonch muhitini mustahkamlash hamda ijtimoiy loqaydlik, huquqiy nigilizm va ma’naviy begonalashuvning oldini olishiga oid taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2025-2029-yillarga mo‘ljallangan saylovoldi dasturini, jumladan II. Ma’naviy yuksalish va madaniyatni rivojlantirish qadriyatlarga tayangan taraqqiyot yo‘nalishida belgilangan “Davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasidan kelib chiqib ish ko‘rish, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga tayanish” vazifalari ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2025-yil 7-yanvardagi 02/02-02-son ma’lumotnomasi). Natijada, partiya tizimidagi xodimlarning siyosiy-huquqiy yo‘nalishdagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish hamda mafkuraviy targ‘ibot ishlari jamiyat hayotiga tatbiq etishga xizmat qilgan;

mutafakkir ilmiy merosidagi adolat, ehson, mas’uliyat, silai rahm kabi ma’rifatga undovchi komillik mezonlari ijtimoiy-ma’naviy muhit sog‘lomligini ta‘minlashda adolatparvarlik va qonunga hurmat madaniyatini mustahkamlashi, mehr-oqibat, hamjihatlik va o‘zaro ishonch muhitini shakllantirishi, yoshlar ongida ma’rifatparvarlik va axloqiy immunitetni rivojlantirish xususiyatlariga oid ilmiy yangiligi, falsafiy tahlillari, ilmiy-nazariy xulosa va taklif-tavsiyalaridan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtiriladigan “Baxtli oila” markazida bajarilgan 81-09/171-son “Xotinqizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini barham toptirish orqali oilalarda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligiga erishish” loyihasida belgilangan IV yo‘nalishining 6-bandidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining 2026-yil 17-fevraldagi 01-06/40-son ma’lumotnomasi). Natijada, oila mustahkamligiga oid yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalar haqidagi g‘oyalar jamiyat ma’naviy barqarorligini ta‘minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola (11 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 133 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan Oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti va usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlarning soni, dissertatsiyaning tuzilishi asoslangan.

Dissertatsiyaning "**Burhoniddin Marg'inoniy qarashlarida ma'naviy barqarorlik tushunchasining ilmiy-nazariy va g'oyaviy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida Burhoniddin Marg'inoniy qarashlarida ma'naviy barqarorlik masalalarining ilmiy konseptual asoslari yoritilgan mazkur bobda mutafakkirning ilmiy merosi, hayot va faoliyati, o'z davrining ijtimoiy-siyosiy muhiti, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yechimiga qaratilgan fiqhiy masalalarga oid fikrlar falsafa, tarix hamda islom huquqi nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Mazkur davrda Burhoniddin Marg'inoniy tomonidan yaratilgan ilmiy asarlarning mazmun-mohiyati, inson, uning qadr-qimmatini ta'minlash kabi ijtimoiy muammolar, ularning yechimiga doir fiqhiy masalalar, davlat va jamiyat boshqaruvi, uning farovonligini ta'minlashga, xavfsizlikni saqlashga xizmat qilganligi ilmiy manbalar asosida bayon qilingan. Shuningdek, jamiyat ma'naviy barqarorlik masalasiga ta'lim-tarbiya, adolat, tinchlik, insonning xulq-axloqi, o'z manfaatlaridan jamoa manfaatlarini ustun qo'yishi kabi ezgu g'oyalar asosida jamiyat ravnaq topishi ilmiy manbalar asosida tadqiq etilgan. Bundan tashqari, inson huquqlari, sha'ni, or-nomusi, insonning taqdiri va hayoti islom falsafasi bilan bog'liq holda ifodalab beriladi.

Muallif fikricha, insonning jamiyatdagi o'rni, huquq va imkoniyatlari kafolatlanganligi, izzat va hurmati ta'minlanganligi ma'naviy barqaror taraqqiyot sari kafolatdir. Shuningdek, ma'naviy barqarorlikka inson o'zining halol mehnati yordamida, bilimdonlik va yuksak aql-zakovati orqali erishadi, ma'naviy barqarorlik rivojiga zamin yaratadi. Xususan, alloma qarashlarida ma'naviy barqarorlik va ruhiy poklanish orqali inson ijtimoiy mavqeyi mustahkamlanadi deb hisoblaydi. Bu fazilatlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas.

Ma'naviy barqarorlik — shaxs yoki jamiyatning ichki ruhiy va axloqiy holatini ifodalaydi. U insonlar o'rtasidagi munosabatlar, qadriyatlar va e'tiqodlar asosida shakllanadi.

Dissertatsiyada mutafakkirning “Hidoya” asarining N.I.Grodekov tomonidan rus tiliga qilingan tarjimasining huquqshunoslik fanlari doktori, professor A.X.Saidov tomonidan yozilgan mukammal soʻz boshi bilan qayta nashr qilingani, Maxsudxoʻja ibn Mansurxoʻja “Majmaʼul-Maqsud yoki Sharhi Muxtasar ul-Viqoyai turkey”⁵ asarida fiqh sohalarini ilmiy jihatdan tadqiq qilganligi, Odiljon Qoriyev tomonidan Burhoniddin Margʻinoniyning ilmiy merosi keng yoritib berilganligi, S.Isxakov, “Burhoniddin Margʻinoniyning “Hidoya” asari muhim huquqiy manba”⁶ ekanligiga oid qarashlarida diniy, huquqiy masalalar tadqiq etilganligi, N.Yusupova mutafakkirning oila, nikoh masalalarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilgan vajamiyatdagi ijtimoiy muammolarni huquqiy yechimlarini bugungi kun ruhiyati asosidatadqiq qilgan.

Bundan tashqari, Burhoniddin Margʻinoniy ilmiy merosini xorijlik Aytmamat Kariyev⁷, Likoshin Nil Sergeyevich⁸lar mutafakkir hayoti, yashab oʻtgan davriga oid tadqiqotlarni olib borgan.

Burhoniddin Margʻinoniy oʻz davrida mashhur boʻlgan musulmon olamining toʻrt asosiy mazhab asoschilarining ilmiy meroslarini oʻrganish asnosida fiqhga oid bir qator asarlar yozgan. Ular:

“Muxtorotun-navozil” (yangi yuzaga kelgan masalalarga oid toʻplam);

“Kitabul-faroiz” (meros masalalari haqida kitob);

“Kitabul muntaqo” (tanlangan fatvolar kitobi);

“Kitob manosik al-haj” (Haj ibodatiga oid kitob);

“At-tajnis val-Mazid” (Bu fatvo kitob hisoblanadi);

“Majmuʼ an-Navozil” (Fatvolar majmuasi kitobi);

“Nashr al-Mazhab” (Mazhab tarqalishi haqida kitob);

“Hidoya fi shahri bidoyatil muftadiy” (Boshlovchilar dastlabki taʼlim asariga sharh-toʻgʻri yoʻlga boshlovchi kitob).

Afsuski, ushbu asarlarning barchasi ham saqlanib qolgan emas. Mutafakkirning bugungi kungacha saqlanib qolgan asarlari quyidagilar:

- “Muxtorotun-navozil” asarining qoʻlyozma nusxalari Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliqi, Misr, Quvayt, Hindiston, Tunis, Pokiston, Rossiya hamda Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar fondlarida saqlanmoqda.

- “Kitabul tajnis val mazid” asari qoʻlyozma nusxalari Turkiya, Misr, Hindiston, Tunis, Quvayt, Irlandiya davlatlari qoʻlyozma fondlarida saqlanadi.

Tadqiqotda mutafakkirning ilmiy merosida jamiyatda maʼnaviy barqarorlikni harakatlantiruvchi asosiy kuch inson ekanligini koʻrishimiz mumkin. Burhoniddin

⁵Махсудхўжа ибн Мансурхўжа. Мажмаъул-Мақсуд ёки Шарҳи Мухтасар ул-Викоия туркий. -Тошкент: Адолат, 1996.-Б. 624.

⁶Исхаков С.А. Бурҳониддин Марғинонийнинг Ҳидоя асари-муҳим ҳуқуқий манба (тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). Юри. ф. н. ... дисс. автореф. –Тошкент, 2002 –Б. 145.

⁷ Kariyev A. Burhaneddin el-Merginani, Orta asya alimlerinin islam medeniyetine katkilari: Bishkek/Kirgizistan, 2019- В 9.

⁸ЛыкошинН.С. АвторХидаи.Туркестанскиеведомости.1970.№106.-С.64.

Margʻinoniy diniy-falsafiy qarashlaridainsonlarni jamiyatda ijtimoiy adolat mezonlari asosida yashashga davʻat etadi. Zero, fuqarolarni axloqiy-huquqiy normalar asosida faoliyat yuritishlari, oʻzgalarning mol-u mulklariga koʻz olaytirmasliklari, haromdan hazar qilish, insof va diyonat, mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlar har qanday jamiyatning maʼnaviy barqaror oʻsishiga zamin yaratadi.

Tadqiqotchi fikriga koʻra, inson jamiyatda roʻbaroʻ keladigan dolzarb ijtimoiy muammolar: oilaviy, mulkchilik, savdo-sotiq, jinoyat va jazo, burch va masʼuliyatga taalluqli masalalar Burhoniddin Margʻinoniy diniy-falsafiy qarashlarida islom huquqi va axloqi mezonlari nuqtayi nazaridan hal etib berganliklarini taʼkidlaydi.

Dissertatsiyada mutafakkirning ijtimoiy muammolarga yechim topishda naqliy va aqliy bilimlar, qiyos uslubi, mujtahid va ijti hod kabi tushunchalarni ifodalashda mantiqiy dalillardan oʻz oʻrnida mohirona ishlatganligi ilmiy dalillar orqali ochib berilgan.

Burhoniddin Margʻinoniyning eng mashhur asari boʻlmish “Hidoya”oʻzining soddaligi,uni barcha tushunishi uchun ortiqcha soʻzlar ishlatilmaganligi, ravonligi, bayon qilish uslubi, moʻjazligi, mantiqi, misollardagi maftunkorligi bilan, eng asosiysi jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yechimiga xizmat qilganligi bilan ahamiyatlidir. Mutafakkir asarlari oʻziga xos uslubda bayon qilinganligi bilan boshqa zamondoshlari ilmiy meroslaridan ajralib turadi. Burhoniddin Margʻinoniyning asarlarida keltirilgan diniy-falsafiy qarashlaridagi fikrlari birinchi shaxs lafzida izhor etmaganligi,oʻzining manfaatidan boshqalar manfaatini ustun qoʻyganligiga ishoradir. Ushbu sababni ayrim tarixchilar “alloma hatto oʻzining qalbiga manmanlik tuygʻusi bir lahza boʻlsada oralab qolish ehtimoli xavfidan choʻchib shunday qilar ekan”⁹ degan maʼlumotlarni qayd etganligini koʻrishimiz mumkin. Bundan tashqari, Burhoniddin Margʻinoniyning diniy-falsafiy, huquqiy qarashlarining ahamiyati shundaki, biror bir masalaga yechim topishda oʻz fikrlarini qurʻon va hadisdan dalillar keltirishi, sahobalar asarlari, toʻrt mazhab imomlarining ijti hodlari hamda oʻzidan oldin yashab ijod etgan buyuk faqihlar fatvolari orqali bayon etgan. Zero, mutafakkir ushbu masalalarninaqliy-naqliy dalillar orqali mustahkamlab isbotlashga harakat qilgan. Burhoniddin Margʻinoniyning asarlari yana shu jihati bilan oʻquvchini oʻziga tortadiki, unda nihoyatda muhim va munozarali masalalarni yoritishda sahobalar va tobeʼinlar, ayniqsa asosiy toʻrt mazhab imomlari, ulardan keyingi buyuk faqihlar ismlarini, chiqarayotgan fiqhiy masalaga ularning fikri boshqacha boʻlganda ham, ularning nomlari hurmat bilan tilga olinadi. Xususan, “...Burhoniddin Margʻinoniyning “Hidoya” asari barchamiz uchun faxrlanishga arzigulik asardir. Shuningdek, ushbu asar yozilishi jihatdan ravon tilda, hamma tushunishi uchun kundalik hayotda uchraydigan muammolarning yechimiga bagʻishlangan asar ekanligi, naqliy va aqliy dalillardan oʻrinli foydalanganligi, eng muhimi jamiyat maʼnaviy

⁹Қориев О. Ал-Марғиноний машхур фикҳшунос.-Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000. – Б.26.

barqarorligini ta'minlashga xizmat qilib kelgan bir kitob"¹⁰ ekanligi o'z davrida barcha ilm ahliga metodologik asos bo'lib xizmat qilgan nodir manbadir. "Hidoya"da fiqh, falsafa ilmidan tashqari jug'rofiy va tarixiy joylar, turli toifa va xalqlar nomlarini alohida e'tibor bilan tilga olinadi. Bu kabi yuksak insoniy fazilatlar bugungi davr faylasuv va huquqshunoslariga, umuman ajdodlarining ilmiy merosiga qiziquvchi tadqiqotchilarga ma'naviy oziqa va ruhiy quvvat bag'ishlaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **Mutafakkir qarashlaridagi ma'naviy barqarorlik masalalarining umuminsoniy mohiyati** deb nomlanib, unda Burhoniddin Marg'inoniy "Hidoya" asari jamiyatda ma'naviy barqarorlikni ta'minlashning ijtimoiy zarurati sifatida, mutafakkir qarashlaridagi ma'naviy barqarorlikning ijtimoiy-axloqiy me'yorlar bilan o'zaro aloqadorligi, Burhoniddin Marg'inoniy ilmiy merosida ma'rifat va diniy bag'rikenglik kabi masalalari ochib berilgan.

Dissertatsiyada mutafakkirning diniy-falsafiy qarashlarida jamiyat ma'naviy barqarorligi ilm orqali ta'minlanishi ta'kidlangan. Bundan tashqari, Burhoniddin Marg'inoniy asarlarida jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va imkoniyatlari kafolatiga oid g'oyalari bugungi kun nuqtayi nazari bilan legitimlik, liberallashtirish, demokratiya, emansipatsiya kabi tushunchalar orqali qiyosiy tahlil qilingan. Bundan tashqari, mutafakkirning ilmiy merosida, jamiyatning negizi ham, inson ruhiy-ma'naviy olamining beshigi oila ekanligi, unda insoniy qadr-qimmatini o'rniga qo'yish haqidagi qarashlar ma'naviy barqarorlikning yuksak ifodasidir.

Tadqiqotchi fikricha ma'naviy barqarorlikka erishishda ilm-fanning jamiyat uchun ahamiyati, biror bir masalaga yechim topishda aqliy dalillarga asoslanishi, halollik, insonlarda altruizm xususiyatlarni shakllantirish, inson taqdiri, xalq manfaatlari, jamiyat farovonligiga erishishda namoyon bo'lishiga oid ilmiy-nazariy qarashlar falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, bugungi kunda hayotimizda uchrab turadigan turli diniy va fiqhiy masalalarni ilmiy asosda yechib berishga ehtiyoj har qachongidan ko'ra ortayotganligi, virtual olamda axborot oqimi natijasida turli mafkuraviy tahdidlar kuchayotganligi sezilmoqda.

Dissertatsiyada fiqh ilmining "Furu al-fiqh" normalarini sha'riy dalillar asosida keltirish, har bir masalada ortiqcha so'zlarni tark etish, qur'on va sunnatdan iqtibos orqali noyob masalalarni ajratib olish va o'xshashlariga qiyoslash, diniy va huquqiy masalalar bo'yicha hukmlar olinadigan manbalardan xabardor bo'lish, yangi masalalar bo'yicha fatvolar berish, jamiyatdagi ijtimoiy jihatdan ixtilofli masalalarni yechishda ilmiy bahslar orqali hal qilish (ijmo), fatvolar berishni tartibga solish, fiqhning vujudga kelish metodologiyasi hamda amaliy sohalariga oid ko'plab kitoblarning ta'lif etishi kabilarning tizimli tahlili keltirilgan. Ayniqsa, mutafakkirning fiqhiy qarashlaridagi ezgu g'oyalar mamlakatlar va xalqlar o'rtasida umuminsoniy qadriyatlarni ta'minlashga, jamiyat va insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni uyg'unlashtirishga, eng muhimi

¹⁰ Ўзбекистон Фанлар Академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида №.Р.9445 рақам остида сақланаётган "Викоятур-ривоя" қўлёзма нусхаси. Б.1.

jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qadriyatlarni rivojlantirish natijasida kelajak avlodlar uchun ijobiy muhit yaratishga xizmat qiladi.

Shuningdek ushbu bobda Burhoniddin Marg'inoniy qarashlaridagi "ijob va qabul" lafzlari, shart, tayin qilish, ko'rish, ayb ixtiyori, ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov masalasi jamiyat ma'naviy-axloqiy qiyofasini yuksalishida muhim ekanligi ochib berilgan.

Dissertatsiyada axloq bilan tarbiya o'zaro bog'liq ekanligini, ular uchun ilm boshlang'ich asos vazifasini bajarishini ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. Jumladan, mutafakkir ilmiy merosida "kishining ilmi va dini yuqoriga ko'tarilganda, faqirligi va yetimligi uni past qilmaydi. Nodonlik va fosiqlik uni past qilganda, molu nasabi uning (martabasini) ko'tarmaydi" degan naqlga avvalo o'zi shaxsiy namuna sifatida gavdalanadi. Mutafakkir asarlarida men degan jumlaning o'rniga "Undan Alloh rozi bo'lsin"¹¹deya o'zini nazarda tutgan.

Burhoniddin Marg'inoniy asarlarida jamiyatda uchrab turadigan turli ijtimoiy muammolarga huquqiy jihatdan xalqchil, osonusuldayechim berilganligi o'z davrida davlat boshqaruvi tizimida asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilgan. Jumladan, mutafakkirning "Hidoya" asari birinchi juzida keltirilgan nikohdagi tenglik, nikohga vakil qilish, mahr, qulning nikohi, mushrik kishilar nikohi, taloq, farzandlarni nafaqalari, ota-ona, bobo va momoning nafaqasi, nikoh va oilaga oid munosabatlarning bugungi kundagi ahamiyati, milliy qonunchiligimizdagi o'xshashliklar va farqli jihatlari qiyosiy tahlil usulida ochib berilgan.

Tadqiqotchi fikriga ko'ra jamiyatdagi o'zgarishlar oilaga o'z ta'sirini ko'rsatganidek, oiladagi o'zgarishlar ham jamiyatga o'z ta'sirini ko'rsatishi ta'kidlanadi.

Burhoniddin Marg'inoniy asarlarida ma'naviy muhitni takomillashtirishda avvalo oiladan, ya'ni farzand tarbiyasidan boshlash kerakligiga oid qarashlari mavjud. Mutafakkir farzandlarni halollik, sadoqat, rahm-shafqat, kamtar bo'lishga oid axloqiy fazilatlar hamda qur'on, hadis, fiqh, mantiq, falsafa, adabiyot, she'riyat, tarix kabi ilm-fan sohalarini sir-sinoatlarini o'rgatish orqali tarbiylash lozimligini ta'kidlaydi. Bu esa, jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu borada farzandlar jismoniy va aqliy jihatdan sog'lom bo'lishi uchun sport bilan muntazam shug'ullanishi, kundalik hayotda zarur bo'ladigan zamonaviy kasb-hunar sohalarini ta'lim tizimiga joriy qilishga alohida e'tibor qaratgan.

Mutafakkir ilmiy merosida teng huquqlilik prinsipiga alohida e'tibor berilgan. Jumladan: Rasululloh (alayhissalom) "ogoh bo'ling, ayollarni faqat valiyolari uylantirsinlar va faqat o'zlariga teng bo'lgan kishiga turmushga bersinlar deganlar"¹². Tenglikda kelin va kuyovning nasl-nasab, mol-mulk, kasb-hunar jihatdan ham teng bo'lishi ta'kidlanadi. Chunki odatda manfaatlarni tartibga solish ikki (bir-biriga) teng bo'lganlar o'rtasida bo'ladi. Sababi obro'li ayol xasis (pastkash) kishi bilan yashashga also rozi bo'lmaydi. Shuning uchun (bo'lajak erni tanlashda) ayolning holatini e'tiborga olish lozim.

¹¹Бурхониддин Марғиноний. Ҳидоя. 1-жилд.-Тошкент: Hilol- nashr, 2022. – Б. 25.

¹²Бурхониддин Марғиноний. Ҳидоя. 2-жилд.-Тошкент: Hilol- nashr, 2021. – Б. 58.

Ammo ayolning tarafidan (nasabning past bo'lishi) e'tiborga olinmaydi. Chunki er oila boquvchidir, shunday ekan, ayolning nasabi (erning nasabidan) pastligi uchun xafa qilmaydi. Oilaviy nizolar, ajralishlar, farzand tarbiyasidagi sustkashliklar tadqiqotchi fikricha jamiyatni ma'naviy tanazzuliga olib keladi. Shuningdek, mutafakkir ilmiy merosida sog'liq masalasiga alohida urg'u berilgan. Burhoniddin Marg'inoniyning qarashlarida tibbiyot masalasi tahorat, ro'za tutish, ozodalik, poklik, sog'lom turmush tarzi kabi tushunchalar jamiyat ma'naviy barqarorligida muhim omil ekanligi ilmiy asoslangan. Bundan tashqari, mutafakkirning "Hidoya" asari ibodat va muomalat masalalariga bag'ishlanganikkita katta guruhga bo'linganligi, ularning bir-biridan farqli jihatlarining tahlili keltirilgan. Ayniqsa, ikkinchi guruh muomalat masalalarida ma'naviy barqarorlikka oid ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, moliyaviy, jinoyat va jazo, ekologiya hamda qishloq xo'jaligi kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotchi fikricha, Burhoniddin Marg'inoniy asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy masalalarga huquqiy jihatdan har tomonlama xalqchil oson usulda yechim berilganligi aholiga katta qulayliklar yaratganligini ta'kidlaydi. Xususan, adolatparvarlik g'oyalari Zakot kitobida "Bir kimsaning boshqa birovda qarzi bo'lib, qarzdor bir necha yil davomida qarzini inkor qilib kelsa"¹³, so'ngra qarz berganning foydasiga biror hujjat topilsa, qonuniylik nuqtai nazaridan qarz bergan kishigao'tgan yillariga ham zakot bermaydi, bordiyu biror kishi qimmatbaho xazina topib olsa va topib olgan ashyoningyigirma foizini berish(davlat hisobiga) joiz ekanligi jamiyatda qonun ustuvorligiga ishoradir.

Burhoniddin Marg'inoniyning ilmiy merosida ko'zga yaqqol tashlanuvchi muhim xususiyatlardan biri-uning altruistik g'oyalar bilan sug'orilganligidir. Allomaning insonparvarlik, bag'rikenglik, jamiyatga naf keltirish, boshqalarga beminnat yordam berish kabi ezgu g'oyalari yetakchi o'rin tutadi.

Burhoniddin Marg'inoniyning jamiyatga naf keltirish g'oyasi avvalambor shaxsning jamiyatdagi roli va vazifalarini yuqori baholashga asoslangan. U shaxsning jamiyatdagi mavqeini faqat o'z manfaatlarini ko'zlab emas, balki jamiyat, boshqa insonlar manfaatlarini ko'zlab ish tutishda deb biladi. Allomaning qarashlari shaxsning jamiyatdagi faolligini, mas'uliyatini oshirishga yo'naltirilgan. Mutafakkir ilmiy merosida o'zga kishilarga yordam berish, ularga xizmat qilish, jamiyat uchun foydali ishlar qilish shaxsning qadr-qimmatini oshirib, uning ma'naviy yuksalishiga olib kelishini ta'kidlaydi. Shuningdek, alloma shaxsning o'z-o'zini anglashi, o'z imkoniyatlari, qobiliyatlari, salohiyatini jamiyat manfaatlari uchun safarbar eta olishi muhim ekanligini ta'kidlaydi. Burhoniddin Marg'inoniy diniy-falsafiy qarashlarida shaxs faqat o'z manfaatlari uchun emas, balki jamiyat uchun ham mehnat qilishi, xizmat qilishi lozim ekanligini targ'ib qiladi. Shuningdek, mutafakkirning falsafiy qarashlarida yaxshilik, halollik, insonparvarlik, tenglik, omonatga xiyonat qilmaslik, o'zgalar moliga ko'z olaytirmaslik kabi tushunchalar ham alohida o'rin tutadi.

¹³Бурхониддин Марғинович. Ҳидоя. 1-жилд.-Тошкент: Нилol-nashr, 2022.-Б. 456.

Dissertatsiyaning “Yangi O‘zbekistonda ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda Burhoniddin Marg‘inoniy ilmiy merosidan foydalanishning konstruktivahamiyati” deb nomlangan uchinchi bobida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’naviy islohotlarda mutafakkir ilmiy merosi samarali mexanizm sifatida, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda mutafakkir merosining ilmiy-ma’naviy xarakteri ochib berilgan.

Dissertatsiyada ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy merosni o‘rganish, tadqiq etish, bugungi kunda amalga oshirilayotgan ma’naviy islohotlar jarayoniga targ‘ib qilish, ma’naviy islohotlar samaradorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilayotganligi tizimli tahlil qilingan. Bu esa, fuqarolarni allomalar tomonidan yaratilgan merosga hurmat ruhida tarbiyalashda, turli ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashishda dasturulamal vazifasini bajaradi. Bu borada “...milliy ma’naviyatimizga mutlaqo begona bo‘lgan zararli g‘oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta’bir joiz bo‘lsa, “chaqirilmagan mehmon” bo‘lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg‘ak bolalarimizning pokiza qalbi va ongiga kirib kelayotganidan ham ko‘z yuma olmaymiz”¹⁴ degan fikrda ajdodlarimizning bizgacha yetib kelgan boy madaniy merosini o‘rganish orqali yoshlarda ma’naviy immunitetni rivojlantirishiga ishoradir.

Tadqiqotchi fikricha, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy tomondan rivojlantirish davlatning asosiy funksiyalaridanbiri ekanligi, bu funksiyalar kuchli ijtimoiy islohotlar yordamida amalga oshirilishi ta’kidlangan.

Burhoniddin Marg‘inoniy ilmiy merosida keltirilgan progressiv (konstruktiv)g‘oyalar jamiyat ma’naviy qiyofasini rivojlantirishga qaratilganbo‘lib necha yillar o‘tsa ham o‘z qadrini yo‘qotmay kelayotganligi diqqatga sazovordir. Xususan, mutafakkir falsafiy qarashlarida jamiyatda mumkin va mumkin bo‘lmagan axloqiy normalar hamda ijtimoiy hayotda uchrab turadigan muammolarning yechimlari asosiy o‘rinni egallaydi. Jumladan: o‘g‘irlik, talonchilik, yolg‘onchilik kabi salbiy illatlarga jamiyat a‘zolarida toqatsizlik bilan kurashi ma’naviy barqarorlik takomillashishiga ishoradir. Masalan, jamiyatda uchrab turadigan turli nojo‘ya hatti-harakatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab jazo tayinlangan. Nojo‘ya xatti-harakat odamlarga, jamiyatga qarshi qaratilgan bo‘lsa, unda qo‘lini kesish jazosi muqarar bo‘lgan. Xususan, musulmonlar o‘lkasida asli (ruxsatsiz) olish muboh (olish ixtiyorli) bo‘lgan, arziyas narsalar: o‘tin, o‘t-o‘lan, qamish, baliq, qush, ov hayvoni, margumush, qizil tuproq va ohak toshi kabilarni olganlik uchun qo‘l kesilmaydi. Bu boradagi asos Oisha roziallohu anho rivoyat qilgan hadisdir. U kishi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam davrilarida arziyas narsa uchun qo‘l kesilmaydi”¹⁵, bundan tashqari “...meva va kasar (o‘g‘irlagani)uchun qo‘l kesilmaydi”,biroq, xurmoni” xurmo quritiladigan joyga qo‘yilgan bo‘lsa, (uni o‘g‘irlaganlik sababli) qo‘l kesiladi”¹⁶, deganlar. Shuningdek, mutafakkir asarlarida fiqh, adolat, burch, vafo, tenglik kabi tushunchalar ulug‘langan. Ayniqsa

¹⁴Мирзиёев М.Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021- Б. 268.

¹⁵Бурхониддин Марғиноний. Ҳидоя. 3-жилд.-Тошкент: Hilol- nashr, 2021. – Б. 224.

¹⁶Бурхониддин Марғиноний. Ҳидоя. 3-жилд.-Тошкент: Hilol- nashr, 2021. – Б. 226.

ahdga vafo qilish har bir kishining muqaddas burchi ekanligi ta'kidlanadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Ahdarga vafo qilinadi (ahdlar) buzilmaydi" deganlar. Ahdga vafo qilish komil mo'min sifatlaridandir. Ahdga xiyonat qilish, va'daga vafo qilmaslik, so'zining ustidan chiqmaslik jamiyatlarning buzilishiga sabab bo'luvchi, odamlar o'rtasida o'zaro ishonch yo'qolishi, omonatlar zoye bo'lishi va xiyonat yoyilishiga olib boradigan yomon sifatlardandir. Bu esa, jamiyatning beqarorlashuviga, taraqqiyotning tanazzuliga sabab bo'luvchi omillardan biridir.

